

Termiz shahrida yil yakuniga qadar 10 dan ortiq yangi mehmonxona faoliyatini boshlaydi



Termiz shahrida yil yakuniga qadar 10 dan ortiq yangi mehmonxona faoliyatini boshlaydi

Bugun viloyat hokimi Ulug‘bek Qosimov haftalik ish rejasiga muvofiq hududlarda turizm, madaniyat, madaniy meros va ommaviy kommunikatsiyalar sohalarida olib borilayotgan ishlar bilan tanishmoqda, mas‘ullarga soha yuzasidan vazifalarni belgilab bermoqda.

Ish kuni avvalida viloyat rahbari Termiz shahrida “Termiz Boysun Qurilish” korxonasi


tomonidan qurilgan "Tarmita plaza" mehmonxonasi bilan tanishdi. Shu yerning o'zida Termiz shahrida mehmonxona qurayotgan tadbirkorlar bilan muloqot o'tkazildi. Ular bilan sohadagi mavjud muammolar hamda ularning yechimi muhokama qilindi. Yil yakuniga qadar shaharning o'zida 10 dan ortiq mehmonxona foydalanishga topshirilishi ma'lum qilindi.

Image not found or type unknown

Shundan so'ng, Termiz shahrida yangi mehmonxonalar qurilgan, Termiz tumanida dam olish maskani tashkil etish bo'yicha loyiha-taqdimotlari bilan ham tanishilib, loyihalarni takomillashtirish, sifatli amalga oshirish yuzasidan tavsiyalar berildi.



Image not found or type unknown






Image not found or type unknown

